

Qandli Diabet Kasalligi Tiplarining Etiologik Omillari

Ergashov Behruzjon Komilovich

Trainee assistant at the Asian International University, Bukhara, Uzbekistan

Annotatsiya: Qandli diabet kasalligi tiplarining kelib chiqish etiologik omillarni aniqlash, I tip qandli diabet, II tip qandli diabet, IIa tip qandli diabet, IIb tip qandli diabet.

Kalit so'zlar: qand kasalligi, insulinga bog'liq, insulinga bog'liq bo'limgan.

Qandli diabet, qand kasalligi — organizmda insulin tanqisligi va moddalar almashinuvni buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik. Qand kasalligi sharq xalq tabobat tarixida juda qadimdan ma'lum. Abu Ali ibn Sino bu dardga alohida e'tibor beradi. "Suv qanday ichilgan bo'lsa, shu holda chiqadi", deb yozadi u. Bemorning ko'p suv ichishi boshqa kasalliklarni ham keltirib chiqaradi va bemor juda ozib ketadi. Davolarga to'xtab tabib: "Bemorga sovuq mizoqli suyuqliklar ichir, sovuqjomga sol, nordon ayron ichir, mevalar ber, yalpiz damlab ichir, ya'ni bemorni ho'lla,sovut", deydi. Bu — kasallik odam badanida issiqlikning oshib ketishi tufayli paydo bo'lishini bildiradi. Qand kasalligi tarixiy tibbiy manbalarga ko'ra, nasliy bo'lishi ham mumkin. Qandli diabetda qonda qand moddasi keskin ko'payib, siyidik bilan chikib turadi (tarkibida qand moddasi bo'ladi), tashnalik, ozib ketish, quvvatsizlik, badan qichishishi va boshqalar alomatlar kuzatiladi.

Qandli diabet — yuqumli bo'limgan kasalliklarning to'rtta asosiy turidan biridir. Xalqaro diabet federatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'y lab 425 milliondan ziyod odam ushbu kasallikdan aziyat chekmoqda va ularning aksariyati 2-toifa diabet bilan og'rigan bemorlardir. O'zbekistonda qandli diabet bilan kasallanganlar soni 245 mingdan ko'proq bo'lib, ulardan 2,3 mingdan ko'pi bolalar, 879 nafari esa o'smirlardir. O'zbekistonda qandli diabet bilan kasallanganlar soni 245 mingdan ko'proq, ulardan 2,3 mingdan ortig'i – bolalar.

Kasallikning irsiy yoki hayotda orttirilgan, shuningdek, insulinga bog'liq (diabetning 1turi) va insulinga bog'liq bo'limgan (diabetning 2 turi) turi farq qilinadi.

I tip qandli diabet bilan 20 yoshgacha bo'lgan odamlami 0,25% kasallanadi. Qandli diabet ni bu xili o'spirinlar qandli diabeti yoki insulinga bog'liq qandli diabet deb ham ataladi. I tip qandli diabet autoimmun kasallik bo'lib, uni ma'lum genetik moyillik fonida virus infeksiyalari, shuningdek tashqi muhitning qator o'tkir va surunkali omillari qo'zg'atishi mumkin. Virus infeksiyasining qandli diabet rivojlanishida rolini bu kasallikda qizilcha, parotit, Koksa, entsefalomielit, sitomegaliya kabi virus kasalliklariga nisbatan yuqori titrda antitanalar aniqlanishi tasdiqlaydi. Agar ayol homiladorlik davrida qizilcha bilan kasallangan bo'lsa, uning bolasida o'sish davrining keyingi 10-yillarda 25% holiarda I tip qandli diabet rivojlanishi m umkin. I tip qandli diabet asosan 30 yoshgacha b o 'lgan odamlarda uchraydi, kasallikning cho'qqisi 14 va 25 yoshlarga to'g'ri keladi. Virus infeksiyasi betta-hujayralar yuzasidagi antigenlar tuzilishining buzilishini chaqiradi va natijada autoimmun jarayon rivojlanishga boshlaydi. U immunkompetent hujayrala r bilan pankreatik orolchalarning yallig 'ianish infiltratsiyasidan (insulit) boshlanadi. Natijada betta-hujayralar destruksiyananadi. betta-hujayralaming 75% i o'lishi glukozaga tolerantlikni pasayishiga olib keladii. 80-90% funksiyaga qobiliyatli betta-hujayralarning o'lishi esa I tip qandli diabet klinik manifestatsiyasi (namoyon bo'lishi)ni chaqiradi. I tip qandli diabetni patogenezida genetik moyillikning ahamiyati oxirigacha aniqlangan emas. Birinchidan, bu kasallikni HLA DR3, DR4 va DQ gaplotiplari bilan juda yaqin assotsiatsiyasi (o'zaro bog'lanish) ma'lum. Ikkinchi tomondan agar ota-onai I tip qandli diabet bilan kasallangan bo'lsa, ularning bolalari faqat 10% hollarda I tip qandli diabet bilan kasallanadi, shu bolalaming faqat 5% da 1 tip qandli diabet bobosi va buvisida aniqlanadi. Diabetni 1-turidan butunlay davolanib bo'lmaydi, lekin ba'zi hollarda

bez faoliyatini me'yorda ushlab turib, parhezga amal qilinsa, kasallik bemorni ortiqcha bezovta qilmaydi. Doimiy ravishda sun'iy insulin qabul qilish talab etiladi. Insulin oshqozon-ichak traktida parchalanib ketishi bois, u faqat ineksiya orqali ovqatlanish vaqtida kiritiladi. Qat'iy parhezga amal qilib, ovqat ratsionidan yengil hazm bo'luvchi uglevodlarni (shakar, shirinliklar, mevali sharbatlar) butunlay chiqarib tashlash ko'rsatiladi.

Qandli diabetning barcha shakllariga xos bo'lgan asosiy xususiyat oshqozon osti bezi beta hujayralarining disfunktsiyasi yoki nobud bo'lishidir. Bu hujayralar almashtirilmaydi, chunki odam 30 yoshga to'lgandan keyin oshqozon osti bezi beta hujayralarini yangilay olmaydi. Beta-hujayralarning funktsiyasini pasayishiga yoki to'liq yo'q qilinishiga olib keladigan ko'plab mexanizmlar mavjud. Bu mexanizmlar irsiy moyillik va anomaliyalar, epigenetik jarayonlar, insulin qarshiligi, otoimmunitet, qo'shma kasalliklar, yallig'lanish jarayonlari va atrof-muhit omillarini o'z ichiga oladi.

II tip qandli diabet uchun xavf omillari

- ✓ ortiqcha vazn/semizlik
- ✓ jismoniy faollikning etishmasligi
- ✓ yosh
- ✓ 1-darajali qarindoshlarda qandli diabet
- ✓ homiladorlik qandli diabet tarixi
- ✓ yurak-qon tomir kasalliklari va uning xavf omillari
- ✓ etnik kelib chiqishi (Janubiy Osiyo, Afro-Karib dengizi, Ispaniyalik)

Qandli diabetning eng keng tarqagan turi 2-tip qandli diabetdir . 2-tip qandli diabet bilan og'rigan odamlarning aksariyati ortiqcha vaznli yoki semirib ketgan, bu insulin qarshilagini keltirib chiqaradi yoki yomonlashtiradi. Qandli diabetsiz yashovchi odamlar bilan solishtirganda, BMI mezonlariga ko'ra semiz bo'limgan ko'pchilik tanadagi yog 'miqdori ko'paygan bo'lib, ular asosan qorin bo'shlig'ida tarqagan, bu esa ba'zi populyatsiyalarda, masalan, Osiyo aholisida. beta-hujayra disfunktsiyasi Evropa ajdodlari populyatsiyalariga qaraganda og'irroq ko'rindi. Xuddi shu narsani Hindiston kabi past va o'rta daromadli mamlakatlardan kelgan ozg'in odamlar va yuqori daromadli mamlakatlarda yashovchi hindular orasida ko'rish mumkin.

II tip qandli diabetga moyillik nasldan-nasnga beriladi. Ota-onaning birortasida II tip qandli diabet bo'lsa, bola katta bo'lganda 40% hollarda unda II tip qandli diabet bilan kasallanish xavf! tugiladi. Bir tuxumli egizaklarda kasallikka nisbatan konkordantlik 100% ga yetadi. Shu bilan bir qatorda bu kasallik rivojlanishida semirish katta ahamiyatga ega. Semirish ko'pincha kasallikni klinik namoyon bo'ishiga sabab bo'ladi. I darajali semirishda kasallik rivojlanish xavfi 3 barobar, II darajasida 5 barobar va III darajasida 10 barobardan ko'proqqa oshadi. Kasallik patogenezida g ipdinamiya, yog'larga boy parhez, jig arda glukoza ishlab chiqarilishining yuqori bo'lishi, visseral semirish, genetik omillar, bolalik davrida ovqatlanishning buzilishi va b. lar katta rol o'ynaydi (I.I.Dedov va hammual., 2000). II- tip qandli diabet patogenetik nuqtai nazardan geterogen kasallik bo'lib , uni IIa va IIb tip qandli diabet shakllari farq qilinadi. Bu kasallik, ko'pincha, semirish bilan birga kechadi (IIb tip qandli diabet), uning patogenezida insulin rezistentlik ustunlik qiladi. IIa tip qandli diabet semirishsiz kechadi va 40 yoshdan keyin namoyon bo'la boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilovich, E. B. (2024). GLOMERULONEFRIT KASALLIGIGA ERTA TASHXISI QO'YISHNING ZAMONAVIY USULLARI. *World scientific research journal*, 24(1), 223-228.
2. Komilovich, E. B. (2024). YURAK YETISHMOVCHILIGINING YUZAGA KELISHINING PATOGENETIK MEXANIZMLARI. *Journal of new century innovations*, 47(1), 159-167.

Formation and Development of Pedagogical Creativity

International Scientific - Practical Conference

<https://www.openconference.us/index.php/pedagogy>

3. Komilovich, E. B. (2024). INFEKSION ENDOKARDITNING ZAMONAVIY DAVOLASH TAMOYILLARI. *World scientific research journal*, 24(1), 229-235.
4. Komilovich, E. B. (2024). DILATED CARDIOMYOPATHY ETIOLOGY AND PATHOGENESIS. *World scientific research journal*, 24(1), 201-208.
5. Komilovich, E. B. (2024). PECULIARITIES OF THE CLINIC OF EXUDATIVE PLEURISY. *Journal of new century innovations*, 47(1), 133-139.
6. Komilovich, E. B. (2024). SIDE EFFECTS AND CONTRAINDICATIONS OF DRUGS USED IN ATHEROSCLEROSIS. *Journal of new century innovations*, 47(1), 146-151.
7. Komilovich, E. B. (2024). DEVELOPMENT OF CARDIOMYOPATHY IN DIABETES MELLITUS. *PEDAGOGS*, 52(1), 80-86.
8. Komilovich, E. B. (2024). PRINCIPLES OF MODERN TREATMENT OF INFECTIVE ENDOCARDITIS. *Journal of new century innovations*, 47(1), 140-145.
9. Askaralievna, M. R., & Komilovich, E. B. (2024). PATHOGENETIC MECHANISMS OF HEART FAILURE: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlar o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 4(1), 203-215.
10. Эргашов, Б. К. (2024). МЕТОДЫ РАННЕЙ ДИАГНОСТИКИ И ОБСЛЕДОВАНИЯ АНОМАЛИИ ЭБШТЕЙНА. *Ustozlar uchun*, 54(2), 52-57.
11. Эргашов, Б. К. (2024). МЕХАНИЗМ ДЕЙСТВИЯ И ВИДЫ МЕДИАТОРОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ ПРИ ВОСПАЛЕНИИ. *Ustozlar uchun*, 54(2), 58-64.
12. Эргашов, Б. К. (2024). ОСОБЕННОСТИ КЛИНИКИ ЭКССУДАТИВНОГО ПЛЕВРИТА. *Ustozlar uchun*, 54(2), 65-72.
13. Эргашов, Б. К. (2024). ПОБОЧНЫЕ ДЕЙСТВИЯ И ПРОТИВОПОКАЗАНИЯ ПРЕПАРАТОВ, ПРИМЕНЯЕМЫХ ПРИ АТЕРОСКЛЕРОЗЕ. *Ustozlar uchun*, 54(2), 84-89.
14. Эргашов, Б. К. (2024). ПАТОГЕНЕТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ. *Ustozlar uchun*, 54(2), 73-83.
15. Komilovich, E. B. (2024). DRASTOP BENEFICIAL PROPERTIES FOR THE BODY. *TADQIQOTLAR*, 32(2), 144-149.
16. Komilovich, E. B. (2024). MODERN METHODS OF EARLY DIAGNOSIS OF GLOMERULONEPHRITIS. *TADQIQOTLAR*, 32(2), 170-176.
17. Komilovich, E. B. (2024). METHODS OF EARLY DIAGNOSIS AND EXAMINATION OF EBSTEIN'S ANOMALY. *TADQIQOTLAR*, 32(2), 163-169.
18. Komilovich, E. B. (2024). ОСНОВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРЕПАРАТА ДРИПТАН. *TADQIQOTLAR. UZ*, 32(2), 150-155.
19. Komilovich, E. B. (2024). ОСНОВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРЕПАРАТА ДРИПТАН. *TADQIQOTLAR. UZ*, 32(2), 150-155.
20. Komilovich, E. B. (2024). MECHANISM OF ACTION AND TYPES OF MEDIATORS THAT OCCUR IN INFLAMMATION. *TADQIQOTLAR*, 32(2), 156-162.
21. Gafurovna, A. N., Xalimovich, M. N., & Komilovich, E. B. Z. (2023). KLIMAKTERIK YOSHDAGI AYOLLARDA ARTERIAL GIPERTENZIYANING KECHISHI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(6), 26-31.